



KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TURLARI

Xabibullaev Davlatjon Yulchibaevich

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori,
yuridik fanlar nomzodi*

Ibratova Feruza Bobokulovna

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori v.b.,
yuridik fanlar doktori*

Akramov Alisher Akbar o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada korporativ huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning turlari haqida O'zbekiston Respublikasida mavjud qonunchilik hujjatlaridagi normalar va ilmiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan ma'lumotlar orqali tahlil qilingan bo'lib, mamlakatimizda mazkur munosabatlar qanday usul va vositalar bilan tartibga solingani bayon etilgan. Shuningdek, bir qator huquqshunos olimlarning qarashlari yoritilgan holda, yurtimizda ushbu tizimda mavjud ayrim muammolar xususida so'z yuritilgan. korporativ huquqiy munosabatlarga oid xorijiy tajriba o'rganilib, tahlil qilingan. Mazkur munosabatlarga oid ayrim xulosa va takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Korporativ-huquqiy munosabatlar, ta'sisshilar, korporatsiya, tashkiliy huquqiy shakl, boshqaruv organlari, iqtisodiy protsessual kodeks.*

CONCEPT OF CORPORATE LEGAL RELATIONS AND THEIR TYPES

Khabibullaev Davlatjon Yulchibaevich

*Professor of Tashkent State Law University,
PhD in Law*

Ibratova Feruza Bobokulovna

*Professor of Tashkent State Law University,
Doctor of Law*

Akramov Alisher Akbar coals

*Master student of the Tashkent State
Law University*

Abstract: *This article analyzes the concept of corporate legal relations and their types in the Republic of Uzbekistan through the norms of legal documents and the information cited in scientific literature, and describes how these relations are regulated in our country. Also, the views of a number of legal scholars were highlighted, and some problems existing in this system in our country were discussed. Foreign experience of corporate legal relations was studied and analyzed. Some conclusions and suggestions regarding these relations have been put forward.*

Keywords: *Corporate-legal relations, founders, corporation, organizational legal form, governing bodies, economic procedural code.*

ПОНЯТИЕ КОРПОРАТИВНЫХ ПРАВООТНОШЕНИЙ И ИХ ВИДЫ

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибаевич

*профессор Ташкентского государственного юридического университета,
кандидат юридических наук*

Ибратова Феруза Бобокуловна

*И.о. профессора Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук*

Акрамов Алишер Акбар угли

*Магистрант Ташкентского государственного
юридического университета*

Аннотация: *В данной статье анализируется понятие корпоративных правоотношений и их виды в Республике Узбекистан через нормы правовых документов и сведения, приводимые в научной литературе, и описывается, как эти отношения регулируются в нашей стране. Также были освещены взгляды ряда ученых-правоведов, обсуждены некоторые проблемы, существующие в этой системе в нашей стране. изучен и проанализирован зарубежный опыт корпоративных правоотношений. Сделаны некоторые выводы и предложения относительно этих отношений.*

Ключевые слова: *Корпоративно-правовые отношения, учредители, корпорация, организационно-правовая форма, органы управления, хозяйственный процессуальный кодекс.*

Korporativ-huquqiy munosabatlar haqida so‘z yuritilganda, avvalombor, ta’kidlash kerakki, bu tushuncha haqida nazariyachi olimlar o‘rtasida yagona fikr mavjud emas. Ba’zilari bu munosabatlarni tashkiliy munosabatlarga tenglashtirishsa, ba’zilari mulkiy munosabatlarning bir ko‘rinishi sifatida baholashadi²³. Yana bir toifa olimlar esa uniham tashkiliy, ham mulkiy munosabatlar yig‘indisidan iborat ekanligini bildirishadi. Fikrimizcha, oxirgi variant bir muncha to‘g‘riroq. Chunki korporativ munosabatlar taraflarning tengligi prinsipiga asoslangan mulkiy va nomulkiy xarakterdagi munosabatlardan tashqari korporatsiyani tuzish, uning faoliyatini boshqarish, qayta tashkil etish, tugatish kabi tashkiliy masalalarni o‘z ichiga olgan tashkiliy xarakterdagi munosabatlardan ham iborat bo‘ladi²⁴.

²³ Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – С. 327-332.

²⁴ Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG‘LIQ MASALALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – С. 105-109.

Masalan, ta'sischiilar (ishtirokchilar, a'zolar)ning biror korporatsiyani tashkil etishdan asosiy va umumiy maqsadi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan holda foyda (daromad) olish hisoblanadi²⁵.

Korporativ munosabatlar deganda, korporatsiya ishtirokchilari (aksionerlari) bilan korporatsiya rahbariyati (direktorlar kengashi, rayosat) o'rtasida, ishtirokchilar (aksionerlar) bilan ishtirokchilar (aksionerlar) o'rtasida, korporatsiya ishchilari bilan korporatsiya rahbariyati (direktorlar kengashi, rayosat) o'rtasida, korporatsiya bilan davlat, davlat organlari, kreditorlar, hamkorlar, boshqa tashkilotlar, fuqarolar o'rtasida bo'ladigan korporatsiya faoliyatiga bog'liq munosabatlar tushuniladi²⁶.

Korporativ munosabatlarda ishtirok etayotgan har bir shaxsning korporatsiya faoliyati bo'yicha muayyan qiziqishi, manfaati mavjud bo'ladi. Masalan, biror fuqaro korporatsiyaning aksiyasini sotib olib, uning aksiyadoriga aylangan bo'lsa, unda korporatsiyaning foydasidan dividend olish bo'yicha manfaati mavjud bo'ladi²⁷.

Xorijiy davlatlarda korporativ munosabatlarda ishtirok etadigan shaxslarning turlari bir xil emas. Masalan, Shveysariyada korporativ munosabatlarning asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari bo'lib, korxonalaridan tashqari muassasalar ham tushuniladi.

Korporativ munosabatlar sodir etiladigan joyiga ko'ra, quyidagi 2 turga bo'linadi:

- ichki korporativ munosabatlar;
- tashqi korporativ munosabatlar²⁸.

Agar munosabatlar korporatsiyaning ichkarisida sodir bo'lsa, bunday munosabatlar – ichki korporativ munosabatlar, agar korporatsiyaning tashqarisida sodir etilgan bo'lsa, ular – tashqi korporativ munosabatlar deyiladi.

Ichki korporativ munosabatlarga biror mas'uliyati cheklangan jamiyati ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushning ishtirokchilar o'rtasida qayta taqsimlanishi yoki aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari umumiy yig'ilishining jamiyatni qayta tashkil etish haqida qaror qabul qilishi va hokazo shunga o'xshash masalalar bilan bog'liq munosabatlar kiradi. Bu yerda huquqiy munosabatlarga kirishayotgan taraflar (subyektlar)ning soni ko'p bo'lishi ham mumkin²⁹.

Tashqi korporativ munosabatlarga biror kooperativning o'ziga tegishli ko'chmas mulkini tegishli davlat kadastr organidan ro'yxatdan o'tkazishi yoki oilaviy korxonaning o'zi yetishtirgan mahsulotini boshqa korxonaga oldi-sotdi shartnomasi asosida sotishi va hokazo shunga o'xshash masalalar bilan bog'liq munosabatlar kiradi.

²⁵ Boboqulovna I. F. et al. HAKAMLIK SUDI VA DAVLAT SUDLARI O'RTASIDAGI FARQ QILUVCHI OMILLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 110-115.

²⁶ Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.

²⁷ Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.

²⁸ Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 5-13.

²⁹ Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.

Ichki va tashqi korporativ munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi jihatidan quyidagi 2 turga bo'lishimiz mumkin:

- ommaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan ommaviy korporativ munosabatlar;
- xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan xususiy korporativ munosabatlar³⁰.

Ommaviy korporativ munosabatda muayyan korporativ munosabatning ishtirokchisi (ishtirokchilari) shu munosabatning boshqa ishtirokchisi (ishtirokchilari) bilan bo'ysunuv, o'zaro tobelik asosida munosabatga kirishadi. Ommaviy korporativ munosabatlar korporatsiyaning ichida ham, tashqarisida ham sodir etilishi mumkin³¹.

Ichki ommaviy korporativ munosabatga quyidagi misolni keltirish mumkin. Masalan, fuqaro aksiyadorlik jamiyatining ovozga ega bo'lgan aksiyasini sotib olsa, u aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Lekin aksiyadorlar umumiy yig'ilishi biror masala yuzasidan muayyan qaror qabul qilgan bo'lib, mazkur aksiyador ushbu qarorga qarshi ovoz bergan bo'lsa-da, qaror ko'pchilik aksiyadorlar tomonidan qo'llab quvvatlanganligi sababli, qarshi ovoz bergan aksiyador ham ushbu qarorni bajarishga majbur bo'ladi³². Bundan tashqari, har qanday aksiyador jamiyatning direktorlar yig'ilishi, boshqaruvi, rayosati, bosh direktori tomonidan chiqarilgan qaror yoki buyruqlarga buysinishi kerak.

Xususiy korporativ munosabatda muayyan korporativ munosabatning ishtirokchisi (ishtirokchilari) bir-biri bilan o'zaro tenglik prinsipi asosida munosabatlarga kirishadi. Xususiy korporativ munosabatlar ham ommaviy korporativ munosabatlar kabi korporatsiyaning ichida ham, tashqarisida ham sodir etilishi mumkin³³.

Ichki xususiy korporativ munosabatga muayyan korporatsiyaning bir aksiyadori bilan ikkinchi aksiyadori o'rtasidagi yoki ishtirokchisi bilan ishtirokchisi o'rtasidagi korporativ munosabatni, masalan, korporatsiya ustav fondidagi ulushini taqsimlash yoki aksiyasini sotib olish kabi masalalar yuzasidan vujudga kelgan munosabatni kiritsa bo'ladi.

Tashqi xususiy korporativ munosabatda esa korporatsiya boshqa korporatsiya yoki jismoniy shaxslar bilan o'zaro tenglik prinsipi asosida munosabatga kirishadi. Masalan, korporatsiyaning o'zi biror aksiyadorlik jamiyatining aksiyasini sotib olgan bo'lib, ushbu jamiyatdan dividend olish masalasida shu jamiyatning aksiyadori hisoblangan boshqa korporatsiya yoki jismoniy shaxs bilan munosabatga kirishsa yoki emitent hisoblangan biror korporatsiya o'zining qimmatli qog'ozini chiqarish va ularni taqsimlash bo'yicha boshqa

³⁰ Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2022. – 2022.

³¹ Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.

³² Boboqulovna I. F. et al. KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT VA U BILAN BOG 'LIQ NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTINING AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 96-104.

³³ Yunusova M., Ibratova F. LEGAL ISSUES OF THE WORLD AGREEMENT IN BANKRUPTCY AS A PROCEDURAL INSTITUTE //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2021. – №. 62-2. – C. 10-14.

investorlar bilan munosabatga kirishsa, bunday munosabatlar tashqi xususiy korporativ munosabatlar hisoblanadi.

Korporativ munosabatlarni o'zining ta'sir qilish xarakteriga ko'ra quyidagi 2 turga ajratish ham mumkin:

- mulkiy xarakterdagi korporativ munosabatlar;
- tashkiliy xarakterdagi korporativ munosabatlar.

Mulkiy xarakterdagi korporativ munosabatlarga korporatsiya ta'sischilari (ishtirokchilari, aksiyadorlari, a'zolari)ning korporatsiyani tashkil etish uchun muayyan mol-mulkini yoki mablag'larini ustav fondiga ulush sifatida berishi, korporatsiya tomonidan olingan foyda (daromad)ning taqsimlanishi, dividend yoki ulushlarning ajratilishi kabi holatlar bilan bog'liq munosabatlarni kiritish mumkin³⁴.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasida qayd etilishicha, jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha to'rt yuz ming AQSH dollariga teng summadan kamni tashkil etmasligi kerak.

Ushbu qoida talabidan kelib chiqib, har bir aksiyador jamiyatning ustav fondiga o'z ulushlarini tegishli miqdorda kiritishar ekan, ular mulkiy xarakterdagi korporativ munosabatlarning ishtirokchilariga aylanishadi³⁵.

Shuningdek, mazkur Qonunning 18, 19-moddalarida jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkinligi yoki aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkinligi, 26-moddasida aksiyadorlar jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishlari, jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq, mol-mulkning bir qismini olishlariga haqli ekanligi, 32-moddasida jamiyatda jamiyat ustavida nazarda tutilgan, ammo uning ustav fondining (ustav kapitalining) o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etilishi, ushbu fond jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantirilishi va shu kabi qator mulkiy xarakterdagi korporativ munosabatlarni tartibga solishga oid qoidalar, talablar mavjud³⁶.

Tashkiliy xarakterdagi korporativ munosabatlarga esa korporatsiya faoliyatini boshqarish, shu jumladan, boshqaruv organlari tomonidan muayyan masalalarni hal etish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazish, muhokama qilish, qarorlar qabul qilish, tegishli hujjatlarni tasdiqlash, ularning ijrosini nazorat qilib borish va hokazo shu kabi holatlar bilan bog'liq munosabatlarni kiritish mumkin. Jumladan, "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 18, 19 – moddalarida to'liq shirkatning faoliyatini boshqarish tartibini belgilovchi qator qoidalar o'z aksini topgan.

³⁴ Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

³⁵ Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.

³⁶ Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 57-62.

Jumladan, ularning mazmuniga ko'ra, to'liq shirkat ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi shirkatning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. To'liq shirkat faoliyatini boshqarish uning barcha ishtirokchilarining umumiy kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Shirkatning ta'sis shartnomasida qaror ishtirokchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadigan hollar nazarda tutilishi mumkin. Shirkatning har bir ishtirokchisi, agar ta'sis shartnomasida ishtirokchilar ovozining sonini aniqlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, bir ovozga ega bo'ladi. Shirkatning har bir ishtirokchisi, u shirkatning ishlarini yuritishga vakolatli yoki vakolatli emasligidan qat'i nazar, ishlarni yuritishga doir barcha hujjatlar bilan tanishishga haqlidir³⁷. Bunday huquqdan voz kechish yoki uni cheklab qo'yish, shu jumladan, shirkat ishtirokchilarining kelishuviga binoan cheklab qo'yish haqiqiy emas. Mazkur huquq normalari va shu kabi qoidalar asosida tartibga solinadigan munosabatlarning tashkiliy xarakterdagi korporativ munosabatlar turkumiga kiritilishiga sabab shuki, bu yerda munosabat ishtirokchilari o'zaro bo'ysunuv tartibiga amal qilishadi, ya'ni ular o'rtasidagi munosabatlarga mulkiy xarakterdagi munosabatlardagi kabi tenglik tamoyili tadbiiq etilmaydi. Masalan, shirkat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan har qanday qaror uning ishtirokchilari uchun majburiy hisoblanadi³⁸. Hatto biror ishtirokchi ushbu qarorning qabul qilinishiga norozi bo'lgan yoki unga qarshi ovoz bergan taqdirda ham u ko'pchilik ovoz bilan qabul qilingan mazkur qarorni ijro etishi lozim bo'ladi³⁹.

Korporativ munosabatlar amal qilish doirasiga ko'ra, korporatsiya faoliyati bilan bog'liq turli soha (yo'nalish)larga taalluqli bo'lishi mumkin. Masalan, buxgalteriya, soliq, moliya, bojxona va hokazo. Hatto korporatsiya faoliyatidan kelib chiqadigan protsessual huquqiy munosabatlar ham korporativ munosabatlar hisoblanadi. Bundan tashqari, korporatsiya faoliyatiga oid ayrim ma'muriy huquqiy munosabatlarni ham korporativ munosabat sifatida baholash mumkin ular tomonidan to'liq shirkat to'g'risidagi qoidalariga ko'ra belgilanadi. Bu yerda hissa qo'shuvchilar hatto shirkatni boshqarish va uning ishlarini yuritish bo'yicha to'liq sheriklarning xatti-harakatlari xususida bahslashishga ham haqli emaslar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 327-332.

2. Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG'LIQ MASALALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE

³⁷ Boboqulovna I. F., Shokir o'g'li M. D. NIZONI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA VA HAKAMLIK SUDINING ROLI VA AHAMIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 196-207.

³⁸ Babakulovna I. F. et al. COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME MEASURES OF PROCEDURAL COERCION IN THE FIELD OF CIVIL PROCEDURAL LAW //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 173-184.

³⁹ Ибрatова Ф. Б., Чориев М., Собиржонов О. ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ПРОКУРОРА, ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И ИНЫХ ЛИЦ //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 14-22.

INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 105-109.

3. Boboqulovna I. F. et al. HAKAMLIK SUDI VA DAVLAT SUDLARI O 'RTASIDAGI FARQ QILUVCHI OMILLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 110-115.

4. Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.

5. Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.

6. Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 5-13.

7. Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.

8. Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.– 2022. – 2022.

9. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.

10. Boboqulovna I. F. et al. KORPORATIV HUQUQIY MUNOSABAT VA U BILAN BOG 'LIQ NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTINING AHAMIYATI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 96-104.

11. Yunusova M., Ibratova F. LEGAL ISSUES OF THE WORLD AGREEMENT IN BANKRUPTCY AS A PROCEDURAL INSTITUTE //Norwegian Journal of Development of the International Science. – 2021. – №. 62-2. – C. 10-14.

12. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

13. Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.

14. Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 57-62.

15. Boboqulovna I. F., Shokir o'g'li M. D. NIZONI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA VA HAKAMLIK SUDINING ROLI VA AHAMIYATI



//INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 196-207.

16. Babakulovna I. F. et al. COMPARATIVE ANALYSIS OF SOME MEASURES OF PROCEDURAL COERCION IN THE FIELD OF CIVIL PROCEDURAL LAW //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – Т. 3. – №. 25. – С. 173-184.

17. Ибратова Ф. Б., Чориев М., Собиржонов О. ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ ПРОКУРОРА, ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И ИНЫХ ЛИЦ //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – С. 14-22.